



ISSN (E): 2181-4570

AHOLIGA XIZMAT KO`RSATISH SOXALARI GEOGRAFIYASI**Olimqulov Yashnar Maxmadamin o`g`li**

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim yo`nalishi talabasi

Yuldosheva Mahfuza Uktam qizi

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim yo`nalishi talabasi

Jumanazarov Jumaniyoz Anvar o`g`li

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbekiston respublikasining xizmat ko`rsatish sohalar, dunyo hamjamiyatida tutgan nufuzi, bozor, urbanizatsiyasi, shahar va qishloq joylarda xizmat ko`rsatish tarkibi, shaxarlar soni haqida so`z boradi. Xizmat ko`rsatish jarayonining bugungi kundagi holati, takliflar, e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Xizmat ko`rsatish, Urbanizatsiya, shahar, qishloq, aholi, O`zbekiston, viloyat, tumanlar, manzilgoh.

Abstract: This article talks about the service sectors of the Republic of Uzbekistan, its influence in the world community, the market, urbanization, the composition of services in urban and rural areas, and the number of cities. The current state of the service delivery process, suggestions, aspects that should be paid attention to are highlighted.

Key words: Service provision, Urbanization, city, village, population, Uzbekistan, region, districts, settlement.

Aholiga Xizmat ko`rsatish sohasi bozor iqtisodiyotiga o`tgan mamlakatlar iqtisodiyotida ustuvor o`rinni egallaydi. Xizmatlar bozori tarkibi xizmatlarning yangi istiqbolli turlari - bank-moliya, sug`urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va maishiy xizmatlarni rivojlantirish hisobiga takomillashib bormoqda.

Oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va shaxsiy avtotransport bilan ta`minlashning keskin oshishi ularga ko`rsatilayotgan xizmatlarning kengayishiga imkon yaratdi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o`zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta`minlash, odamlarimizning daromadi va hayot





sifatini oshirishning muhim omil va yoʻnalishlaridan biri sifatida xizmat koʻrsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 7-fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasida xizmat koʻrsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning oʻrni va ulushini oshirish, koʻrsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan oʻzgartirish muhim yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab berildi.^[1] Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlaridan biri xizmatlar sohasiga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ular yordamida yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: Xizmatlar sohasida faoliyat yuritidshga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez oʻzgarib turadigan bozor talablariga javob berishini taʼminlaydigan zamonaviy tuzilmalarini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi farmonining 1-ilovasi, - 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi, Lex.uz shakllantirishda yangi ish oʻrinlarini tashkil qilishda va axoli daromadlarini oshirishda qanchalik oʻta muxim rol oʻynashini albatta chuqur anglashimiz zarur^[2]. Jahon iqtisodiyotidagi oʻzgarishlar Oʻzbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizda islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Maʼlumki, respublikamizda xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti bugungi kunda aholi turmush darajasining yaxshilanishida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish b̈oyicha —Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi farmonining 1-ilovasi, —2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasi, Lex.uz

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Konstitutsiyamizning 25 yilligiga bagʻishlangan tantanali tadbirdagi nutqi, 2017-yil 8-dekabr





yuksalishida, yangi ish o`rinlari yaratilishi va aholi daromadlari ortib borishida muhim omil bo`lmoqda. Mamlakatimizda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag`batlantirish yo`lidan izchil olg`a siljish borasida keng ko`lamli chora-tadbirlar kompleksi qabul qilingan.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevralda qabul qilingan № 55 sonli -2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to`g`risida qarori hamda 2017-yil 7-fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlandan PF-4947 sonli O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risidagi farmonida belgilab berilgan ustovor yo`nalishlar asosida milliy iqtisodiyotmizni tubdan takomillahstirish, xizmatlar sohasining undagi ahamiyatini yanada kuchaytirish bo`yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o`laroq, bugungi kunda xizmatlar sohasining mamlakat YaIM da 35, 6 % ni tashkil etgani yoki mamlakat jami aholisining 4 000 000 dan 48 ortig`i aynan mana shu sohada mehnat faoliyati bilan bandligini bemaolol qayd etishimiz mumkin.

Respublikamizda so`ngi yillarda qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida nafaqat iqtisodiy o`shish sur`atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o`zgarishlarining yuz berishi ta`minlandi. Tarkibiy o`zgarishlar borasidagi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti tarkibi diversifikatsiya qilindi. Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2018-yilda O`zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 407 514,5 mlrd.

So`mni tashkil etdi va 2017-yil bilan taqqoslaganda 5, 1 foizlik o`shish ko`rsatkichini qayd etdi. Aholi jon boshiga hisoblaganda YaIM 12 365,6 ming so`mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga o`shganini ko`rishimiz mumkin.





	1995 y	2005 y	2010 y	2015 y	2018 y
I. YaIM, jami	302,8	15 923,4	62 388,3	171 808,3	407 514,5
shu jumladan					
Mahsulotga sof soliqlar	39,8	1 690,1	5 716,9	15 077,3	45 563,4
II. Yalpi qo`shilgan qiymat	263,0	14 233,3 5	56 671,4	156 731,0	361 951,1
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	85,1	4 192,8	11 201,0	28 672,2	117 315,8
Sanoat	51,7	3 370,9	15 114,8	40 264,1	95 083,9
Qurilish	21,4	771,1	3 760,5	11 382,6	20 734,4
Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	23,1	1 400,2 5	5 982,7	16 145,3	26 493,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	22,1	1 676,7	7 337,7	19 158,2	29 868,3
Boshqa xizmat tarmoqlari	59,6	2 821,6	13 274,7	41 108,6	72 455,7

O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarmoqlar bo`yicha tarkibi (joriy narxlarda, mlrd. So`m)





Jadvaldan xulosa qilib Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, 2018-yilda YaIM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasining ta'siri 1,8 % ni tashkil etdi. Ushbu sohada qo'shilgan qiymatning o'sishi 5,4 % ga teng bo'lib, shundan savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta'mirlashni qo'shgan holda) 4,4 % ga, tashish va saqlash 3,7 % ga, axborot va aloqa 15,3 % ga va boshqa xizmatlar 5,4 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynagani kabi, O'zbekistonda ba'zan uchlamchi sektor deb ataluvchi ushbu soha mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2019-yil 1-yanvar holatiga, respublikada davlat reestridan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan 323,5 mingta tashkilot va korxonalaridan 213 mingga yaqini aynan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda va bu boshqa sohalar bilan taqqoslaganda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Respublikadagi ayni kunda faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) sohaga ixtisoslashuvu bo'yicha foizlar kesimida taqqoslaydigan bo'lsak, bu yerda 65,8 % lik natija bilan aynan xizmatlar sohasi yetakchilik qiladi, undan keyingi o'rinlarni sanoat (17 %), qurilish (9,0 %) hamda 7,6 % lik ko'rsatkich bilan qishloq o'rmon va baliq xo'jaligiga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari egallaydi. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va korxonalar umumiy sonida 153 mingdan ortig'i kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ularning ulushi 72,2 % ni tashkil etdi.

Solishtirish uchun, 2018-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida 191, 2 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari (33,0 %) tashkil etgan edi. Undan keyingi o'rinlarda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,0 %), tashish va saqlash (6,3 %), axborot va aloqa (3,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3,1 %) tashkil etgan edi. Respublikada 2018 yil davomida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 146836,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan bo'lib, o'tgan 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % (28,2 trln. so'm) ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari (29,5 %), savdo xizmatlari (26,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,6 %) asosiy ustunlikka ega ko'rsatkichlar bo'ldi.


Solishtirish uchun, 2018-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida 191, 2 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning umumiy tarkibida eng katta






qismini savdo xizmatlari (33,0 %) tashkil etgan edi. Undan keyingi o‘rinlarda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (9,0 %), tashish va saqlash (6,3 %), axborot va aloqa (3,3 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (3,1 %) tashkil etgan edi. Respublikada 2018 yil davomida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 146836,3 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan bo‘lib, o‘tgan 2017 yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 108,4 % (28,2 trln. so‘m) ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari (29,5 %), savdo xizmatlari (26,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,6 %) asosiy ustunlikka ega ko‘rsatkichlar bo‘ldi.

1-Rasm



Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi^[3], (2019-yil 1-yanvar holatiga)% (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Milliy iqtisodiyotda xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta‘siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi, masalan, kredit kartalari orqali to‘lovlar, Internet-savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalarini, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta‘lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir. Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, hududlarda xizmatlar sohasining hajmi





so'ngi yillarda sezilarli ravishda ortib 2018-yilda uning qiymati 146 836,3 mlrd so'mni tashkil qilgan, ya'ni 2016 yilga nisbatan deyarli 1,5 barobar o'sish kuzatilgan.

Hududlar miqyosida xizmatlar sohasining ulushi eng ko'p Toshkent shahriga (2018-yilda 48 361,8 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (2018-yilda 10 959,1 mlrd.so'm) to'g'ri keladi. Eng kam ulushi esa Xorazm va Jizzax viloyatlariga to'g'ri keladi.

Buning asosiy sababi sifatida esa ushbu hududlarda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar kamligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, mavjud salohiyatlardan, ayniqsa turistik salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rishimiz mumkin. Hududlar orasida xizmatlar hajmi bo'yicha Toshkent shahri yetakchilik qiladi. Bu yerda 2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtotransport xizmatlari hajmi 4 976,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etildi 450,8 mlrd. so'm. 2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan Qashqadaryo, 109,8 %, Samarqand 109,3 % va Surxondaryo 109,1 % viloyatlarida yuqori o'sish kuzatildi. Nisbatan past o'sish Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi – 104,0 %.

Yuqorida xaritada Respublikamiz hududlaridagi sog'liqni saqlash xizmat turlari keltirilgan bo'lib qayerda qancha kasalxonalar, poliklinikalar va boshqa davolash maskanlari ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkun.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 25,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, moliyaviy (23,1 %) va transport (21,9 %) xizmatlari katta ulushga ega. Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning 25,6 % ini tashkil etgan. Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi – 1,7 %. Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari ustunlik qiladi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.

Yuqoridagi chizmada xizmat ko'rsatishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar keltirilgan, jumladan 1-o'rinda savdo xizmati va eng so'ngida kompyuter ta'mirlash xizmatlari keltirilgan.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Sug'urta xizmatlari tarkibida eng katta ulush sug'urta xizmatlariga to'g'ri keladi, hayotni sug'urta qilish xizmatlari bundan mustasno (baxtsiz hodisa va yong'indan sug'urta qilish, sog'liqni sug'urta qilish, turistik sug'urta qilish, mol-mulkni sug'urta qilish, transport sug'urta qilish, pul yo'qotishlaridan va majburiyatlardan sug'urta qilish) - 58,9 %. Hayotni sug'urta qilish xizmatlari umumiy sug'urta xizmatlari hajmining 30 % ini tashkil etdi. Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvariga nisbatan 2021- yil sentabrda xizmatlar hajmi 6,0 trln. so'mga, 2021- yil avgustiga nisbatan esa 1,5 trln. so'mga oshgan. 2022- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 93,3 trln. so'mni tashkil etib, 2021- yilning III diskret choragiga nisbatan (74,0 trln. so'm) hajmi 19,3 trln. so'mga oshdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 49 111,0 mlrd. so'mga oshib, 253 840,0 mlrd. so'mga yetdi.






Yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan (119,5 %) o'sish sur'ati 115,4 % ni tashkil etdi. 2021- yil sentabr oyiga nisbatan (25,7 trln. so'm), 2022- yil sentabr (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (32,2 trln. so'm) 6,5 trln. so'mga oshdi. 2022- yil yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr (diskret oyi) uchun bozor xizmatlari hajmi 7,9 trln. so'mga oshdi va 32,2 trln. so'mga yetdi. 2022- yilning oldingi (avgust) oyiga nisbatan 1,3 trln. so'mlik o'sish qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".- T.:O'zbekiston, 2017.
- 2.Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz".- T O'zbekiston 2017.
- 3.Mirziyoyev Sh.M."Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi





qabul qilinganing 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza" 2016-yil 7-dekabr.- T O'zbekiston 2017.

4. O'zbekiston Respublikasining —Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida gi qonuni. 2012-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi va 23 -martda Senat tomonidan ma'qullanib 26-aprel O'RQ-327-soni.

5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish xaqida. «Xo'jalik va huquq», 2000-yil 10-son, 96 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

6. O'zbekiston Respublikasi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatini cheklash va raqobat tug'risida»gi qonuni. 04-aprel 1997. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

